

## SAN'AT VA MADANIYAT TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARIDA MEDIASAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Iroda Berdiyeva*

*O'zDSMI tayanch doktoranti*  
*ORCID: 0009-0007-4718-9305*  
*E-mail: berdiyeva@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida san'at va madaniyat yo'nalishi talabalarining mediasavodxonligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Innovatsion pedagogik metodlar (muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, keys-stadi) hamda raqamli texnologiyalar (VR/AR, virtual ekskursiyalar, raqamli platformalar)ning ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** mediasavodxonlik, san'at va madaniyat ta'limi, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar.

## ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ХУДОЖЕСТВЕННО-КУЛЬТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы повышения медиаграмотности студентов искусств и культуры в эпоху современных информационно-коммуникационных технологий. Освещено влияние инновационных педагогических методов (проблемное обучение, проектное обучение, кейс-стади) и цифровых технологий (VR/AR, виртуальные туры, цифровые платформы) на эффективность образования.

**Ключевые слова:** медиаграмотность, художественно-культурное образование, инновационные методы, цифровые технологии.

## TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF MEDIA LITERACY IN STUDENTS OF ART AND CULTURE EDUCATION

**Abstract:** This article analyzes the issues of improving media literacy of art and culture students in the era of modern information and communication technologies. The impact of innovative pedagogical methods (problem-based education, project-based teaching, case studies) and digital technologies (VR/AR, virtual tours, digital platforms) on educational effectiveness is highlighted.

**Keywords:** media literacy, art and culture education, innovative methods, digital technologies.

### KIRISH

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi va raqamli madaniyatning kengayishi ta'lim jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda.

Ayniqsa, san'at va madaniyat yo'nalishi talabalarining mediasavodxonligini oshirishda innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalar muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik yondoshuv asosida innovatsion metodlar va texnologiyalarning san'at va madaniyat darslarida qo'llanilishi nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning amaliy samaradorligi, o'quv jarayoniga qo'shayotgan hissi va kelgusidagi istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar nafaqat qobiliyatli rassom yoki madaniyatshunos bo'lib yetishishlari, balki mediasharoitida tanqidiy fikrlash, ko'p qirrali yondashuv va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini egallagan fuqarolar sifatida shakllanishlari zarur. Shu bois, pedagogik yondoshuv asosida yaratiladigan innovatsion muhitda interaktiv texnologiyalar, raqamli platformalar va onlayn resurslarning san'at va madaniyat darslarida qo'llanilishi talabalar kreativ salohiyatini oshirish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mediasavodxonlik darajasini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

### **METODOLOGIYA**

Zamonaviy pedagogik olamda "innovatsion metodlar" atamasi ta'lim jarayonlarida yangicha, interaktiv va talabaga yo'naltirilgan yondoshuvlarni ifodalaydi. Ushbu metodologiya avvalgi an'anaviy tizimlarga nisbatan ilmiy asoslangan bo'lib, innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar va interaktiv platformalar orqali muallim va talaba munosabatlarini qayta tashkil etishga qaratilgan. Shu bois, innovatsion metodlar mediatsiya jarayonlari, raqamli kommunikatsiya kanallari va interaktiv tizimlar orqali o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Tarixiy jihatdan pedagogika sohasida innovatsion yondoshuv turli nazariy maktablar, jumladan konstruktivizm, interaktiv ta'lim va kooperativ o'rganish nazariyalari bilan chambarchas bog'liq. Shu nazariyalar asosida yaratilgan innovatsion metodologiyalar talabalar bilan faol muloqot va fikr almashish jarayonlarini qo'llab-quvvatlab, ularning ijodiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Raqamli davrda innovatsion uslublarga urg'u berish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Pedagogik yondashuv - bu o'quv jarayonida maqsadlar, vazifalar, metodlar va tashkiliy usullarni belgilab beruvchi strategik me'yoriy tizimdir. San'at va madaniyat darslarida pedagogik yondashuvni amalga oshirishda talabalar ijodi, hissiyotlari va bilim darajasini birgalikda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Innovatsion metodlar bu yondashuvda muhim rol o'ynaydi, chunki ular talabaning faolligi, interaktivligi va kreativ tafakkurini rag'batlantiradi. Shu tarzda yaratilgan dars muhitida o'quvchilar mustaqil fikrlash, inoyatli talqin va zamonaviy texnologiyalar yordamida mediatsiya sharoitida amaliy ko'nikmalar hosil qilish imkoniga ega bo'ladilar.

### MUHOKAMA

O'zbekiston ta'lim tizimida mediatsiya jarayonlari, ayniqsa san'at va madaniyat yo'nalishida, innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan o'qitish nafaqat bilimlarni uzatishni, balki talabaning ruhiy va ijodiy salohiyatini kengaytirishni ham, shuningdek, ularni zamonaviy dunyoqarashga tayyorlashni ko'zda tutadi. Shu sababli, pedagogik yondashuvning asosiy tamoyillari ichida interaktivlik, konstruktivizm va kommunikativ metodlar etakchi o'rin tutadi.

Zamonaviy ta'lim muhitida san'at va madaniyat fanlarini o'qitish jarayoni innovatsion metodlar va texnologiyalarni keng joriy etishni talab qiladi. Ayniqsa, san'at va madaniyat yo'nalishi talabalari mediasavodxonligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar ta'lim mazmunini boyitish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish hamda talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mazkur paragrafda san'at va madaniyat darslarida qo'llaniladigan innovatsion metodlar va texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Innovatsion metodlar avvalo ta'lim jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular an'anaviy o'qitish usullaridan farqli ravishda talabalar mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. San'at va madaniyat darslarida mediasavodxonlikni rivojlantirishda muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, keys-stadiy, ijodiy laboratoriyalar, workshoplar va master-klasslar kabi innovatsion metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Ushbu metodlar

orqali talabalar media matnlar va san'at asarlarini tahlil qilish, ularni zamonaviy media muhit bilan bog'lash hamda ijodiy talqin etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

San'at va madaniyat darslarida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar orasida raqamli va multimediali vositalar alohida o'rin tutadi. Xususan, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish san'at asarlarini interaktiv idrok etish, muzey va galereyalarga virtual tashrif buyurish, shuningdek, madaniy meros obyektlarini raqamli shaklda o'rganish imkonini beradi. Bu jarayon talabalarning vizual tafakkurini rivojlantirish bilan birga, media axborotni estetik va tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli platformalar va onlayn ta'lim muhitlari san'at va madaniyat darslarida mediasavodxonlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Onlayn galereyalar, raqamli arxivlar, media kutubxonalar va ijtimoiy tarmoqlardan ta'limiy maqsadlarda foydalanish orqali talabalar zamonaviy media makon bilan bevosita ishlash tajribasini orttiradilar. Bunda o'qituvchi talabalarning faoliyatini yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi sifatida markaziy rolni bajaradi.

Bugungi kunda raqamli resurslarga asoslangan o'quv uslublari san'at va madaniyat fanlarida yuqori samaradorlik bilan qo'llanilmoqda. Xususan, interaktiv doskalar, multimediya taqdimotlari, onlayn kutubxonalar va virtual muzey turlaridan foydalanish o'quvchilarga turli axborot manbalarini tizimli ravishda taqdim etadi. Bunday usullar qo'llanilganda, o'quv jarayoni ko'p fazoviy va zamonaviy axborot vositalari orqali tashkil etiladi, bu esa talabalar kreativ fikrlashini va tanqidiy yondoshuvini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Raqamli vositalarni integratsiya qilish jarayonida talabalar bir vaqtning o'zida bir nechta axborot manbalari bilan tanishib, ularni baholash, tahlil qilish va sintez qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tarzda, mediatizasiya darajasi oshadi, chunki har bir interaktiv dars davomida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularga mos amaliy ko'nikmalarni ham egallaydilar. Shu jihatdan, o'qituvchilar innovatsion texnologiyalar yordamida darslarni yanada jonlantirib, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini samarali jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunday texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonining vizual jihatdan boyitilishini ta'minlaydi, balki talabalarni mustaqil o'rganish, axborotlarni to'plash va tahlil

qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, virtual darslarda o'quvchilar turli interaktiv vositalar yordamida ijodiy g'oyalarini ifoda etish, o'zaro fikr almashish va savol-javoblar orqali bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy smartfonlar va planshetlar yordamida ta'lim resurslarini mobil ilovalar orqali taqdim etish ham innovatsion metodlarning muhim komponenti hisoblanadi. San'at va madaniyat darslarida mobil ilovalar yordamida interaktiv testlar, o'yin uslubidagi o'rganish materiallari hamda virtual laboratoriyalar tashkil etish imkoniyati mavjud. Bunday yondoshuv talabalar qiziqishini oshirish, ularni dars jarayoniga faol jalb etish va mustaqil ravishda axborotlarni o'zlashtirish imkonini yaratadi.

Mobil ilovalardan foydalanish orqali o'quvchilar dars materiallari bilan o'z vaqtida tanishib, mustaqil ravishda ko'p qirrali axborot bazasini shakllantiradilar. Shu bilan birga, o'qituvchilar ham mobil ilovalar orqali dars jarayonini monitoring qilishi va ta'lim samaradorligini aniqlashi mumkin. Ushbu yondoshuv pedagogik muhitni interaktiv va individualizatsiyalashgan tarzda tashkil etishga xizmat qiladi.

Pedagogik yondoshuvning asosiy tamoyillari ta'limning kommunikativ, interaktiv va konstruktiv tabiatidan kelib chiqadi. San'at va madaniyat darslarida bu yondoshuv talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularning individual qobiliyatlarini yoritib berish va ijodiy jarayonlarni mustahkamlashga qaratilgan. Innovatsion metodlar aynan shu pedagogik yondoshuvni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan bo'lib, ular orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashish, muammolarni tahlil qilish va ularga yangi, original yechimlar topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik yondashuv asosida innovatsion metodlar qo'llanilganda, o'quv jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega bo'ladi: o'qituvchi nazariy va metodik ko'rsatmalar beradi, o'quvchilar esa amaliy topshiriqlar, interaktiv mashqlar va virtual loyihalar orqali mustaqil o'rganish jarayonida faol qatnashadilar. Ushbu yondashuv talabalarni tanqidiy fikrlash, ijodiy qarorlar qabul qilish va doimiy o'z-o'zini rivojlantirishga rag'batlantiradi.

Innovatsion metodlar va texnologiyalarni pedagogik yondashuvga integrasiya qilishda bir nechta muhim jihatlar ajralib turadi:

Interaktivlikni kuchaytirish. Raqamli texnologiyalar orqali dars jarayonidagi interaktivlik darajasi sezilarli darajada oshadi. Masalan, interaktiv doskalar, onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida talabalar nafaqat nazariy materiallarni o'zlashtiradi, balki ularni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Individualizatsiya va o'zlashtirishni rivojlantirish. Innovatsion yondashuv talabalariga shaxsiy o'rganish sur'atlarini belgilash, mustaqil ravishda axborotlarni tahlil qilish va o'z o'rganish jarayonlarini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar har bir talabaning o'ziga xos iqtidorini hisobga olgan holda dars materiallari va texnologik vositalarni tanlashi mumkin.

Ko'p qirrali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. San'at va madaniyat darslarida innovatsion metodlar nafaqat ta'lim mazmunini yetkazish, balki talabalar ijodini, tanqidiy fikrlashini va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu tarzda, o'qituvchilar bir vaqtning o'zida bir nechta fanlarning bilimlari va texnologik ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Pedagogik yondashuv asosida innovatsion metodlarni rivojlantirishda asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatish mumkin:

O'qituvchining malakasini oshirish. Innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchi doimiy ravishda malaka oshirish, yangi metodologiyalar va texnologik yangiliklarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishi zarur. Bu jarayon, ayniqsa, san'at va madaniyat darslarida talabalarning ijodiy va tanqidiy salohiyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonining doimiy monitoringi va baholanishi. Dars jarayonidagi innovatsion yondashuvni baholash uchun maxsus metodika va monitoring vositalari ishlab chiqilishi lozim. Bu talabalar bilim darajasini aniqlash, o'qituvchining dars metodikasini takomillashtirish va pedagogik jarayonni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tajriba almashinuvi va ilmiy seminarlar tashkiloti. O'qituvchilar o'rtasida innovatsion metodlar va texnologiyalar bo'yicha tajriba almashish, seminarlar, treninglar va master-klasslar tashkil etish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshiriladi.

San'at va madaniyat darslarida innovatsion metodlarni tatbiq etish jarayoni ko'p bosqichli tizim sifatida ko'rilishi mumkin. Birinchi bosqichda o'qituvchilar dars mazmunini raqamlashtirish va turli interaktiv ta'lim texnologiyalarini tanlash orqali innovatsion asos yaratadilar. Keyingi bosqichda esa talabalar bilan interaktiv loyihalar, virtual ekskursiyalar, hamkorlikda yaratilgan multimedia mahsulotlari va onlayn diskussiyalar tashkil etiladi. Shu tarzda, o'quv jarayoni nafaqat dars mazmunini, balki talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ham qamrab oladi.

Misol tariqasida, san'at darsi doirasida virtual kollaj yaratish loyihasi amalga oshirilishi mumkin. Ushbu loyiha davomida talabalar onlayn kutubxonalar va multimedia resurslardan foydalanib, turli obrazlar, rasmlar va videolarni yig'adilar, ularni virtual kollaj shaklida tahlil qiladilar va o'z tasavvurlarini vizual tarzda ifodalaydilar. Bu jarayon talabalarning media savodxonligini oshirish bilan birga, ularni ijodiy fikrlashga va bir nechta axborot manbalarini integratsiyalashga yo'naltiradi.

San'at va madaniyat darslarida innovatsion elementlar sifatida virtual ekskursiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalar onlayn platformalar yordamida milliy va xalqaro miqyosdagi muzeylar, galereyalar va tarixiy yodgorliklarga virtual safar uyushtiradilar. Bunday ekskursiyalar orqali talabalar nafaqat san'at asarlari tarixi va madaniyati bilan tanishadilar, balki interaktiv savol-javoblar, tahliliy munozaralar va guruh muhokamalari orqali amaliy ko'nikmalarni egallaydilar. Shu jarayonda tashkil etilgan interaktiv seminarlar o'qituvchilarning real vaqt rejimida fikr almashish va mulohazalar bildirish imkoniyatini yaratadi, natijada ta'lim jarayoni yanada jonlanadi.

Shuningdek, "Raqamli san'at laboratoriyasi" loyihasi ham samarali pedagogik yondashuv sifatida keltirilishi mumkin. Ushbu laboratoriyada o'qituvchi interaktiv vositalar orqali san'at asarlarini raqamli formatda qayta ishlash, 3D modellashtirish va virtual kollaj yaratish jarayonini tashkil etadi. Talabalar bu modul davomida nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki amaliy tajriba orttiradilar. Natijada, digital san'at ko'nikmalari ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi va kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida san'at va madaniyat darslarida bilim berish jarayonida ko'p fazoviy yondashuv - nazariy ma'lumotlarni interaktiv va amaliy mashg'ulotlar bilan integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv orqali talabalar mavzularni turli kontekstlarda o'rganadilar. Masalan, bir dars davomida avvalo nazariy bilimlar beriladi, so'ngra talabalar mustaqil yoki guruh bo'lib integratsiyalashgan amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Ushbu jarayon talabalarning bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning kreativligi va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv platformalar yordamida onlayn testlar, qisqa videolar va real vaqt tahlillari tashkil etilishi darsning interaktivligini sezilarli darajada oshiradi.

Innovatsion metodlar va texnologiyalarni pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilishda eksperimental sinovlar muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar orqali sinovdan o'tkazilgan metodik yondashuvlar yordamida ta'lim samaradorligi, talabalar bilimi va ko'nikmalari o'rganiladi, ularning rivojlanish darajasi aniqlanadi. Masalan, innovatsion dars modullarini eksperiment asosida tatbiq etish orqali an'anaviy ta'lim uslublari bilan solishtirganda talabalar ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aniq kuzatiladi. Bunday tadqiqotlarda ko'p bosqichli monitoring tizimi, nazorat jadvallari va ilmiy eksperiment metodologiyasi qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari asosida san'at va madaniyat darslarida innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu tavsiyalar o'qituvchilarga innovatsion yondashuvning samaradorligini oshirish, dars jarayonini strukturaviy modellashtirish va vositalarni samarali tanlash bo'yicha yo'l-yo'riq beradi. Natijada, talabalar mediatizatsiya darajasini oshirib, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Quyidagi tavsiyalar innovatsion metodlar va texnologiyalarni pedagogik jarayonga integratsiya qilishda asosiy yo'l ko'rsatmalar sifatida qabul qilinishi mumkin:

Interaktiv dars loyihalarini ishlab chiqish. Har bir mavzu bo'yicha maxsus interaktiv dars loyihalari tashkil etilishi zarur. Ushbu loyihalar davomida virtual

platformalar orqali talabalar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib, ularning faol ishtiroki va ijodiy fikr almashinuvi rag'batlantiriladi.

Raqamli resurslardan samarali foydalanish. Digital kutubxonalar, onlayn muzey turlari, mobil ilovalar va interaktiv doskalar yordamida dars materiallarini boyitish, shuningdek talabalar tafakkur va vizual ko'nikmalarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Ta'lim jarayonini monitoring qilish va natijalarni tahlil etish. Raqamli vositalar orqali o'quv jarayonidagi natijalarni kuzatish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqotni tahlil qilish hamda dars samaradorligini baholash metodikasini joriy etish zarur.

Pedagogik seminarlar va treninglarni tashkil etish. Innovatsion metodlar va texnologiyalar bo'yicha muntazam treninglar, seminarlar va ilmiy konferensiyalar tashkil etilib, o'qituvchilar tajriba almashinuvi orqali pedagogik kompetensiyalarini oshiradilar.

Ushbu tavsiyalar pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etish, shuningdek, talabalar akademik, ijodiy va media savodxonlik ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Quyida pedagogik yondashuv asosida innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llashni namoyish etuvchi namunaviy dars modeli taqdim etiladi. Ushbu modelning asosiy maqsadlari quyidagilar:

Talabalarni mediatizatsiya vositalaridan faol foydalanishga jalb etish;

San'at asarlarini raqamli tahlil qilish va virtual muhitda kreativ fikrlashni rivojlantirish;

Interaktiv texnologiyalar orqali madaniy bilimlarni mustahkamlash.

Darsning bosqichlari:

Nazariy ma'ruzalar. O'qituvchi digital san'at nazariyasi, interaktiv media vositalari va virtual galereya tushunchalarini tushuntiradi. Bu bosqichda talabalar tarixiy kontekst, mediatizatsiya kontsepsiyasi va innovatsion metodlarning nazariy asoslari bilan tanishadilar.

Virtual ekskursiya. Onlayn platformalar (masalan, Google Arts & Culture yoki maxsus virtual muzey turlari) orqali talabalar bilan virtual ekskursiya tashkil

etiladi. O'qituvchi real vaqt rejimida san'at asarlarini tahlil qiladi va talabalarni savollar bilan faol ishtirok etishga undaydi.

Amaliy topshiriq. Talabalar kichik guruhlarga bo'linib, virtual ekskursiya davomida ko'rilgan san'at asarlarining raqamli kollajini tayyorlaydilar. Ushbu jarayonda ular interaktiv vositalardan (mobil ilovalar, grafik dasturlar) faol foydalanadilar.

Guruh muhokamasi va tahlil. Har bir guruh tayyorlagan ishni taqdim etadi, ijodiy qarorlarini va texnologiyalarni qo'llash tajribasini muhokama qiladi. Guruhlar o'zaro fikr almashib, innovatsion metodlarning dars samaradorligini tahlil qiladilar.

Reflektiv jarayon. Dars yakunida barcha qatnashchilar qisqa yozma reflektiv hisobot beradi. Bu hisobotda talabalar dars davomida amalga oshirgan intellektual jarayonlari, eng muhim kashfiyotlari va kelgusida rivojlanish bo'yicha tavsiyalarini ifodalaydilar.

Ushbu dars modelining afzalliklari:

Kreativlik va interaktivlikning oshishi. Talabalar o'z ijodiy salohiyatini virtual muhitda namoyish etib, san'at asarlarini yangi qirralardan tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Mediatsavodxonlik ko'nikmalari. Raqamli vositalardan foydalanish orqali talabalar axborotlarni to'plash, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradilar.

Shaxsiy va guruhli faoliyat. Mustaqil va guruh bo'lib bajarilgan interaktiv topshiriqlar o'qituvchilar tomonidan sinovdan o'tkazilgan metodologiyaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Ushbu dars modeli talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytirib, pedagogik yondashuvni innovatsion metodlar bilan uyg'unlashtirilgan ta'lim tizimida qo'llashga misol bo'ladi. Natijada mediatizatsiya darajasi oshib, san'at va madaniyat darslarida o'quvchilarning ijodiy salohiyati va tanqidiy fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi.

San'at va madaniyat darslarida innovatsion metodlar va texnologiyalarning qo'llanilishi pedagogik yondashuv asosida tahlil qilindi. Nazariy jihatdan innovatsion yondashuv o'quv jarayonlarining interaktivligini oshirish, individualizatsiya va

tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi isbotlandi. Amaliy misollar - virtual ekskursiyalar, interaktiv seminarlar, raqamli kollaj loyihalari va mobil ilovalar orqali o'quvchilarning kreativ salohiyatini yanada oshirish mumkinligi aniqlandi.

Pedagogik innovatsiyalarni samarali tatbiq etish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, dars jarayonini doimiy monitoring qilish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ta'kidlandi. Innovatsion metodlar va texnologiyalarni sinovdan o'tkazish natijalari an'anaviy dars uslublariga nisbatan o'quvchilarning mediatizatsiya darajasining sezilarli darajada oshishini hamda ularning kreativ va tanqidiy salohiyatining mustahkamlanishini ko'rsatdi.

Kelgusida innovatsion yondashuvni rivojlantirish maqsadida yangi texnologik vositalarni tadbiq etish, pedagogik treninglar va ilmiy seminarlarni kengaytirish hamda dars jarayonida interaktiv platformalar va raqamli resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini chuqur o'rganish lozim. Shu bilan birga, o'qituvchilarning tajribasi va metodik yondoshuvlarini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda yangicha metodologiyalar ishlab chiqish kelajakdagi ta'lim tizimi uchun muhim fondir.

Innovatsion yondashuvni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

Yangi texnologiyalarni kiritish: Sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik kabi ilg'or texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar ijodiy potentsialini oshiradi va darslarni interaktiv, ko'p qirrali hamda talabaga yo'naltirilgan qiladi.

O'qituvchi va talabalar o'rtasida hamkorlik: Pedagogik yondashuv asosida yaratilgan innovatsion muhitda interaktiv muloqot, birgalikda muammolarni hal qilish va tajriba almashinuvi rag'batlantiriladi. Bu dars mazmunini boyitadi va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy asoslangan metodik tadqiqotlar: Har bir innovatsion metodning samaradorligi va ta'sirchanligini ilmiy tajribalar asosida o'rganish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Davrga mos kadr tayyorlash: Pedagogik yondashuvni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish o'qituvchilarning professional rivojlanishini taqozo qiladi. Shuningdek, o'quvchilarni raqamli madaniyatga tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlari va treninglar ishlab chiqilishi lozim.

Innovatsion metodlar va texnologiyalarni pedagogik yondashuv asosida san'at va madaniyat darslarida qo'llash jarayoni nazariy, tahliliy va amaliy jihatlarni qamrab oldi. Nazariy materiallardan boshlab, amaliy dars modellariga qadar bo'lgan mulohazalar, metodik tavsiyalar va misollar orqali talabalar mediatizasiya darajasini oshirish, kreativ fikrlash va tanqidiy yondoshuvni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligi isbotlandi. Pedagogik yondashuvning kichik tafsilotlaridan tortib, o'qitish jarayonining interaktivligi, shaxsiylashtirilgan o'rganish va ilmiy eksperiment asosida natijalarni baholashga qaratilgan metodologiyasi kelgusidagi ta'lim tizimini zamonaviy davr talablariga moslashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

San'at va madaniyat darslarida innovativ metodlar va texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo'llash mediasavodxonlikni rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, loyiha asosida o'qitish VR/AR texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilganda talabalar nafaqat media kontentni iste'mol qiladi, balki uni mustaqil yaratish va tahlil qilish jarayonida faol ishtirok etadi. Bu esa talabalarning ijodiy faolligi, tanqidiy fikrlashi va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, innovativ metodlar ta'limning individuallashtirilishi va differensiallashtirilishini ta'minlaydi. Talabalarning qiziqishlari, ijodiy salohiyati va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, media topshiriqlar va loyihalar turli murakkablik darajasida ishlab chiqiladi. Natijada, har bir talabaga o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etish uchun sharoit yaratiladi.

Umuman olganda, innovativ metodlar va texnologiyalarning san'at va madaniyat darslarida qo'llanilishi mediasavodxonlikni rivojlantirishning pedagogik tizimini amaliy jihatdan boyitadi. Ushbu yondashuv talabalarning media makondagi faolligini oshirish, san'at va madaniyatga oid media mahsulotlarni tanqidiy va estetik baholash hamda ijodiy faoliyat orqali mediasavodxonlik kompetensiyasini

shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur xulosalar keyingi bo'limda pedagogik shart-sharoitlar va amalga oshirish mexanizmlarini ilmiy asosda tushuntirish uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, san'at va madaniyat darslarida innovatsion metodlar va texnologiyalarni pedagogik yondashuv asosida qo'llash talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari innovatsion metodlar, jumladan loyiha asosida o'qitish, interaktiv mashg'ulotlar, virtual ekskursiyalar, raqamli platformalar va VR/AR texnologiyalaridan foydalanish talabalarning tanqidiy fikrlashi, ijodiy salohiyati va media makondagi faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv talabalarni faqat media axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi va ijodiy media mahsulotlar yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, innovatsion metodlar va texnologiyalarni san'at va madaniyat ta'limiga tizimli ravishda integratsiya qilish mediasavodxonlikni rivojlantirishning muhim pedagogik omili sifatida baholanadi.

### ADABIYOTLAR:

1. Deusch K. The Nervous Systems of Government: Models of Political Communication and control. - London: Free Press of Glencoe, 1963;
2. Easlon D.A Framework for Political Analysis. Chicago: The University of Chicago Press, 1979;
3. Amond G.A., Coieman J.S Politics of the Developing Areas. Princeton: Princeton University Press, 1960;
4. Pye L. Political Communication // The Blackwell Encyclopaedia of Political Institutions. Oxford - New York, 1987;
5. Schramm V. Mass Media and National Development: The Role of Information in the Developing Countries. Stanford: Stanford University Press, 1964;
6. Adomo T., Horkheimer M. Dialectic of Enlightenment. - New York: Continuum, 1988;
7. Маркузе Г. Одномерный человек: Исследование идеологии развитого индустриального общества. - М.: Reffbook, 1994;
8. Habermas J. The Stmcture Transformation of the Public Sphere. - Cambridge: Polity Press, 1989;
9. Adomo T., HorkheimerM. Dialectic of Enlightenment. - New York: Continuum, 1988;
10. Шиллер Г. Манипуляторы сознанием: Пер. с англ. Предисл. Я. Засурского. – М.: Мысль, 1980;